



INCLUSIVE EDUCATION AND ITS POSITIVE IMPACT ON THE LIVES OF HEALTHY CHILDREN.

Dilfuza Turgunova¹, Nafisa Ikromova²

^{1,2} Namangan State University Theory and history of pedagogy
direction I-year masters,

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4706590>

ARTICLE INFO

Received: 15th April 2021

Accepted: 19th April 2021

Online: 21st April 2021

KEY WORDS

education, equality in
education, inclusive
education, adaptation,
support, disability,
psychological support,
inclusive education
participants.

ABSTRACT

The article provides ideas and feedback on the psychological support of students studying at home.

INKLYUZIV TA'LIM VA UNI NOSOG'LOM BOLALAR HAYOTIGA IJOBIY TA'SIRI.

Dilfuza Turgunova¹, Nafisa Ikromova²

^{1,2} Namangan State University Theory and history of pedagogy
direction I-year masters,

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-aprel 2021

Ma'qullandi: 19-aprel 2021

Chop etildi: 21-aprel 2021

KALIT SO'ZLAR

ta'lim, ta'limda tenglik,
inklyuziv ta'lim,
uyg'unlashuv, qo'llab

ANNOTATSIYA

Maqolada uy sharoitida ta'lim olayotgan o'quvchilarning psixologik qo'llab-quvvatlash to'g'risida fikir va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Mamalakatimizda mustaqillikka erishilgan kundan boshlab, ta'lim sohasiga jahon standartlari talablarini joriy etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarning sog'lom tengdoshlari orasida bir

xil sharoitda ta'lim olishning ta'minlash tendensiyasi ham shular jumlasidandir. Ta'limda tenglik bo'lishi, barcha bolalar birgalikda ta'lim olishi **Inklyuziv ta'lim** deb nomlanadi va bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Inklyuziv –



(inklyuziya-inglizcha uyg'unlashish) hamkorlikdagi ta'lim, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta'lim sifatida tan olingan. Inklyuziv ta'lim –imkoniyati cheklangan va sog'lom bolalar o'rtasida to'siqlarni bartaraf etish, ta'limda maxsus yondashuvga muhtoj bolalarni, barcha tengdoshlari bilan uyg'unlashgan holda ta'lim olishni ta'minklaydigan tizimdir. Nogironligi bor o'quvchilarning o'qitish, va rivojlanishiga yondashuvlarni o'zgartirish zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ijtimoiy moslashuvchan xulq-atvor ko'rinishga ega bo'lgan shaxslarni tarbiyalashga va ijtimoiylashuviga ko'malklashish bugunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammoning hal qilish usullaridan biri "Inklyuziv" ta'lim bo'lib u, teng huquqlar, erkinlik, jismoniy yoki boshqa qobiliyatlaridan qat'iy nazar har qanday bola uchun mos ta'lim yo'nalishini tanlash imkonini beradi. 2020 yil 13.10 da qabul qilingan" Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi Prezident Qarorida ham inklyuziv ta'limga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berilgan. Mazkur qarorni ijrosi mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Hozirgi kunda asosiy vazifa nogiron bolalarni o'qitish, o'qitish sohasidagi mavjud tajribaga asoslanib har xil turdagi va turli xil muassasalarda inklyuziv ta'limni psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlashni maqbul va samarali tizimini yaratishdir. Inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi,

ijtimoiy moslashishini amalga oshirish, o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini ta'minlash. Psixologlar maktabda imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ularni jamiyatga qo'shish va tengdoshlari bilan do'stona mehr-muhabbatli munosabatda bolishlari uchun korreksion va rivojlantiruvchi ishlarni amalga oshirishi lozim. Imkoniyati cheklangan o'quvchining avvalo ruhiyatida ko'tarinkilikni barqarorlashtirishga qaratilgan alohida dastur yoki rejalar asosida ishlansa imkoniyati cheklangan bolalarni normal bolalar kabi topshiriq va vazifalarni tezlik bilan mukammal amalga oshira olmasalarda, ammo imkoniyat darajasida amalga oshirishlari uchun ularda motivatsiya paydo qilinsa bu psixologning eng katta yutuqlaridan biri hisoblanadi. Psixolog ish jarayonida inklyuziv ta'lim ishtirokchilari bilan ham ish olib borishlari kerak. Inklyuziv ta'lim ishtirokchilari kimlar? Oila, mahalla, maktab jamoasi, sinfdoshlar, Xalq ta'limi, Sog'liqni saqlash tizimi. Inklyuziv ta'lim ishtirokchilari birgalikda faoliyat olib borsa maqsad va natija ham samarali bo'ladi.

Inklyuziv ta'lim bolalar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

- Ozlariga o'xshamagan tengdoshlarini ehtiyojlarini his qiladilar

- Qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish-insonparvarlik hissi tarbiyalanadi

- Yordamga muhtoj insonlarga e'tiborsizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar

- Tengdoshlariga g'amxo'rlik hissi uyg'onadi

- Insonlarga imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat, o'zaro hurmat tarbiyalanadi.

Maktabda inklyuziv ta'lim o'qituvchisiga quyidagi tavsiyalar beriladi:

- O'quv materiallarini imkoniyati cheklangan o'quvchining qabul qilish darajasida ekanligiga e'tibor berishi



- O'quvchining barcha analizatoriga ta'sir qiladigan ish olib borishi

- O'quv jarayonini samarali tashkil etishda interfaol usullarni qo'llash

- Kasbga yo'naltirish-va kasbga tayyorlik olib borishda maktab psixologi bilan hamkorlikda ish olib borishi

- O'zlashtirishni baholashda rag'batlantiruvchi usullarni qo'llashi

- O'zaro hamkorlikda ishlash orqali do'stona munosabat muhitini yaratishi

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz mumkinki inklyuziv ta'lim nafaqat ta'lim borasida balki bolalarni ma'naviyva jismoniy o'sishlari, shuningdek vositalarni iqtisod qilish borasida ham samaralidir. O'zbekistonda inklyuziv-korreksion ta'lim va bolalar ta'lim muassasalarini asosiy tayanch punkitlarini tuzish Xalq ta'limi vazirligi va YuNESKO ning asosiy loyhasi hisoblanadi. Bu dasturning maqsadi yordamga muhtoj bolalarni o'qitish, rivojlantirish, ularni realibitatsiyasi bilan shug'ullanishga qaratilgan. Inklyuziv ta'limni davlat tashkilotlari va jamoatchilik bilan bo'lgan munosabatlar orqali rivojlantiradi. Bugun biz inkluyiz ta'lim natijasida nogironligi bor bolalarni ham eshitishni o'rganyapmiz.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatyaptiki inklyuziv ta'lim natijasida nogironligi bor bolalar ham haqiqiy hayotni bilish uchun insonni do'sti bo'lishi kerakligini tushundi. Chunki haqiqiy hayot bu atrofdagi insonlar bilan doimiy bog'lanish va muloqotda bo'lish degan fikrlar bolalar ongida shakillandi va shakillantirilib borilyapti. Bolalr o'zlarini hayotda o'rinlarini topishi uchun bilim va mehnatning ahamiyatini tushunib yetyaptilar. Nogironligi bo'lsada sog'lom tengdoshlariga nisbatan yutuqlari ko'p bo'lgan o'quvchilarni soni kundan-kunga ko'payib borayotgani quvonarli hol. Demak, inklyuziv ta'lim jarayonlari o'z natijalarini ko'rsatmoqda. Bolalarni hayotga qaytarish, ulardagi iste'dod va qobiliyatlarni yuzaga chiqarish yo'lidagi harakatlar besamar ketmayapti. Maktablarda pedagoglar va psixologlar belgilangan vazifalar va tavsiyalar asosida ish tashkillasalar yutuqlar yanada ko'payadi. Sog'lom tengdoshlari qatorida maktabda ta'lim olishlari uchun nogironligi bor bolalar uchun ham ma'naviy- ahloqiy tarbiya, kamolot uchun imkoniyati, ularni barkamolligi yo'lidagi harakatlar bundan buyon ham izchillik bilan davom ettiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi Prezident Qarori –T.2020y. 13.10.
2. "Inkyuziv ta'lim" muvaqqat nizomi -T 2005 yil .
3. "Maktablar hamma uchun", "Bolalarni qutqaring jamg'armasi" –T 2020yil.
4. "Xalqaro forum" materiallari – T. 2005 yil.